

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



TASHQI SAVDO SHARTNOMALARI VA ULARNING
BOSHQARUV MEXANIZMLARI

FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	400000	Biznes, boshqaruv va huquq
Ta’lim sohasi:	410000	Biznes va boshqaruv
Mutaxassislik:	70411102	Tashqi iqtisodiy faoliyat (xorijiy fuqarolar uchun)

Toshkent-2025

Tashqi siyosat va xalqaro iqtisodiy munosabatlar instituti direktori:


G. Arifjonov

“Tashqi iqtisodiy faoliyat” kafedrasini mudiri:


PhD, dotsent M. Voxidova

ARM boshlig'i:


Yuldasheva M.M.

Fan/modul kodi TSShBM1106		O'quv yili 2025-2026	Semestr 1	Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim turi O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 6	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Tashqi savdo shartnomalari va ularning boshqaruv mexanizmlari	72		108	180
2.	<p style="text-align: center;">I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanning maqsadi: Xalqaro biznes shartnomalari fanining asosiy maqsadi-talabalarni xalqaro biznes sohasida tuziladigan shartnomalarning huquqiy, iqtisodiy, va amaliy jihatlarini bilan tanishtirishdir. Bu fan orqali talabalar xalqaro savdo va biznes faoliyatida shartnomalar tuzishning o'ziga xos xususiyatlarini, shuningdek, ushbu shartnomalarning turli xil turlari va tuzish tartiblarini o'rganadilar.</p> <p>Fanning vazifasi: xalqaro shartnomalar tuzishda asosiy tushunchalar va prinsiplarga o'rgatish, talabalarga xalqaro biznes shartnomalarini tuzishda qo'llaniladigan xalqaro va milliy huquqiy me'yorlar haqida bilim berish, shartnomani tuzish, muzokaralar olib borish, shartnoma shartlarini kelishish va rasmiylashtirish bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish, xalqaro shartnomalarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan huquqiy va iqtisodiy xatarlarni aniqlash va ularni minimallashtirish yo'llarini o'rgatish.</p> <p>Xorij tajribasiga muvofiqligi: Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi Waseda University (181 QS) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi. (https://www.waseda.jp/fcom/soc/en/students/gmp)</p> <p style="text-align: center;">II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p style="text-align: center;">II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Xalqaro biznes shartnomalari: tushunchasi va asosiy prinsiplari</p> <p>Ushbu mavzu xalqaro biznes shartnomalarining asosiy tushunchalari, prinsiplari va ularning xalqaro savdo-sotiqdagi ahamiyati haqida umumiy tushuncha beradi. Mavzuda shartnoma huquqining milliy va xalqaro miqyosdagi asoslari ko'rib chiqiladi.</p> <p>2-mavzu. Xalqaro shartnomalar tizimi va ularning huquqiy me'yorlari (UNCITRAL, Vena konvensiyasi, Incoterms)</p> <p>Ushbu mavzu xalqaro savdo munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy huquqiy normalar va ularni belgilovchi xalqaro institutlar faoliyatini</p>				

o'rganishga qaratilgan. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti qoshidagi Xalqaro savdo huquqi bo'yicha komissiya (UNCITRAL), 1980-yilgi Vena konvensiyasi (CISG) va Incoterms xalqaro yetkazib berish qoidolari tizimi shartnomalarning tuzilishi, bajarilishi va nizolarni hal etish mexanizmlarida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mavzuda ushbu huquqiy normalarning mazmuni, amaliy qo'llanilishi, savdo xavflarini kamaytirishdagi roli, va milliy qonunchilik bilan o'zaro uyg'unligi tahlil qilinadi.

3-mavzu. Xalqaro shartnomalar huquqiy me'yorlari

Xalqaro shartnomalar uchun huquqiy asoslarni tashkil etuvchi xalqaro konvensiyalar, milliy qonunchiliklar va xalqaro shartnomalar huquqi tushunchalari tahlil qilinadi. Shuningdek, shartnomalar tuzishda qo'llaniladigan asosiy huquqiy normalar muhokama qilinadi.

4-mavzu. Xalqaro savdo shartnomalari turlari va ularning tuzilish jarayoni

Ushbu mavzu xalqaro savdo shartnomalari turlarini o'rganadi, jumladan, sotib olish va setish, litsenziyalash, franchayzing va boshqa turlar. Mavzuda shartnoma tuzish jarayoni va muhim elementlari ko'rib chiqiladi.

5-mavzu. Xalqaro biznesda muzokaralar olib borish

Mavzu xalqaro shartnoma tuzishda muzokaralar olib borishning usullari, strategiyalari va madaniyatlararo farqlarning muzokara jarayoniga ta'siri haqida ma'lumot beradi.

6-mavzu. Xalqaro shartnomalar tuzish bo'yicha risklarni boshqarish

Ushbu mavzu xalqaro shartnomalar tuzishda yuzaga keladigan xatarlar, jumladan, huquqiy, moliyaviy va operatsion risklarni aniqlash va ularni minimallashtirish strategiyalari haqida ma'lumot beradi.

7-mavzu. Xalqaro to'lov shartnomalari va ularning huquqiy jihatlari

Xalqaro to'lov shartnomalari va ular bilan bog'liq huquqiy masalalar, jumladan, to'lov usullari, valyuta risklari va to'lov kechikishlari bo'yicha masalalar tahlil qilinadi.

8-mavzu. Intellektual mulk huquqi va xalqaro shartnomalar

Ushbu mavzu intellektual mulk huquqlari bilan bog'liq xalqaro shartnomalar, jumladan, patentlar, savdo belgilar, va mualliflik huquqlarini himoya qilish masalalariga e'tibor qaratadi.

9-mavzu. Xalqaro franchayzing shartnomalari

Xalqaro franchayzing shartnomalarining o'ziga xos xususiyatlari, huquqiy asoslari va ularga bog'liq xatarlar haqida ma'lumot beriladi.

10-mavzu. Xalqaro investitsion shartnomalar

Mavzu xalqaro investitsion shartnomalar, ularning tuzilish jarayoni, va xalqaro investitsiyalar bilan bog'liq huquqiy masalalarni o'rganadi.

11-mavzu. Xalqaro tijorat arbitraji va nizolarni hal qilish

Ushbu mavzu xalqaro shartnomalar bilan bog'liq nizolarni hal qilishda tijorat arbitraji roli, arbitraj jarayonlari va arbitraj qarorlarining bajarilishi haqida tushuncha beradi.

12-mavzu. Xalqaro shartnomalarda kutilmagan holatlar va fors-major

Mavzu xalqaro shartnomalarda kutilmagan holatlar, fors-major shartlari va ularning huquqiy oqibatlari haqida ma'lumot beradi.

13-mavzu. Xalqaro transport shartnomalari

Ushbu mavzu xalqaro transport shartnomalari, ularning tuzilish jarayoni, huquqiy asoslari va xavflarni boshqarish usullari haqida ma'lumot beradi.

14-mavzu. Xalqaro lizing shartnomalari

Mavzuda xalqaro lizing shartnomalarining asosiy elementlari, tuzilish jarayoni va huquqiy me'yorlar ko'rib chiqiladi.

15-mavzu. Xalqaro mehnat shartnomalari va migratsiya masalalari

Xalqaro mehnat shartnomalari, mehnat migrantlari huquqlari va xalqaro mehnat qonunchiligi haqida tushunchalar beriladi.

16-mavzu. Xalqaro moliyaviy shartnomalar va huquqiy me'yorlar

Ushbu mavzu xalqaro moliyaviy shartnomalar, moliyaviy operatsiyalar va ular bilan bog'liq huquqiy masalalarni o'rganadi.

17-mavzu. Tashqi savdo shartnomalarida elektron hujjatlar va raqamli imzolarning roli

Raqamli transformatsiya sharoitida xalqaro savdo shartnomalarining tuzilishi va hujjat aylanishi sezilarli darajada o'zgarimoqda. Ushbu mavzu tashqi savdoda elektron hujjatlar, elektron raqamli imzolar (ER1), blokcheyn texnologiyasi va boshqa zamonaviy vositalarning huquqiy maqomi hamda amaliy qo'llanilishini yoritadi. Ayniqsa, hujjatlar haqiqiylikni tasdiqlash, xavfsizlikni ta'minlash, hujjatlar soxtalashtirilishining oldini olish hamda tezkorlikni oshirishda raqamli vositalarning o'rnini alohida o'rganiladi. Mavzu, shuningdek, elektron tijorat va xalqaro shartnoma huquqi o'rtasidagi uyg'unlikni ko'rsatadi.

18-mavzu. Tashqi savdo shartnomalari monitoringi va ijrosi boshqaruv

mexanizmlari

Tashqi savdo shartnomalarining ijrosini samarali tashkil etish va monitoring qilish savdo jarayonining uzviy qismidir. Ushbu mavzu xalqaro shartnomalarning bajarilish bosqichlarini nazorat qilish, shartnoma shartlarining bajarilishini tahlil qilish, xavf-xatarlarni aniqlash va ularni boshqarish tizimlarini qanrab oladi. Unda monitoring vositalari, audit mexanizmlari, shartnoma bajarilishida yuzaga keladigan nizolarni hal etish usullari, shuningdek, shartnoma portfellarini boshqarish bo'yicha zamonaviy yondashuvlar tahlil qilinadi. Real sektorda axborot texnologiyalari asosida ijro nazorati va tahliliy tizimlar joriy etilishi orqali monitoringning avtomatlashtirilishi ham alohida o'rganiladi.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar "Tashqi savdo shartnomalari va ularning boshqaruv mexanizmlari" fanidan ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, amaliy mashg'ulotlar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimcha adabiyotlar va shartnomalarning turli ko'rinishlari bilan tanishish orqali qo'shimcha bilim va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

"Tashqi savdo shartnomalari va ularning boshqaruv mexanizmlari" fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlarga tavsiya etiladigan mavzular:

1. Xalqaro biznes shartnomalari: tushunchasi va asosiy prinsiplari
2. Xalqaro shartnomalar tizimi va ularning huquqiy me'yorlari (UNCITRAL, Vena konvensiyasi, Incoterms)
3. Xalqaro shartnomalar huquqiy me'yorlari
4. Xalqaro savdo shartnomalari turlari va ularning tuzilish jarayoni
5. Xalqaro biznesda muzokaralar olib borish
6. Xalqaro shartnomalar tuzish bo'yicha risklarni boshqarish
7. Xalqaro to'lov shartnomalari va ularning huquqiy jihatlari
8. Intellektual mulk huquqi va xalqaro shartnomalar
9. Xalqaro franchayzing shartnomalari
10. Xalqaro investitsion shartnomalar
11. Xalqaro tijorat arbitraji va nizolarni hal qilish
12. Xalqaro shartnomalarda kutilmagari holatlar va fors-majior
13. Xalqaro transport shartnomalari
14. Xalqaro lizing shartnomalari
15. Xalqaro mehnat shartnomalari va migratsiya masalalari
16. Xalqaro moliyaviy shartnomalar va huquqiy me'yorlar
17. Tashqi savdo shartnomalarida elektron hujjatlar va raqamli imzolarning roli
18. Tashqi savdo shartnomalari monitoringi va ijrosi: boshqaruv mexanizmlar

IV. Mustaqil ta'lim *

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

- o'tilgan mavzuni chuqur o'rganishlari uchun darslik, o'quv materiallari bilan faol ishlash;

- ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish, vaqtdan unumli foydalanish;
- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;
- mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymasligi;
- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarishi.

“Tashqi savdo shartnomalari va ularning boshqaruv mexanizmlari” fanidan mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Xalqaro biznes shartnomalarining huquqiy asoslari.
 2. Xalqaro shartnomalarning turlari va ularning xususiyatlari.
 3. Shartnoma tuzishda muzokara jarayonlari.
 4. Xalqaro savdo shartnomalarining asosiy shartlari.
 5. Xalqaro shartnomalarda inkoterms qoidalarining qo'llanilishi.
 6. Risklarni aniqlash va kamaytirish usullari.
 7. Akkreditivlar, bank kafolati va boshqa to'lov vositalari.
 8. Jazolar, kompensatsiya va boshqa javobgarlik choralari.
 9. Xalqaro shartnomalarda nizolarni hal qilish usullari.
 10. Patentlar, savdo belgilari va mualliflik huquqlari.
 11. Valyuta kursi o'zgarishlari va inflyatsiya ta'siri.
 12. Maxfiylik shartlari va ularning amalga oshirilishi.
 13. O'rindoshlik, agentlik va brokerlik.
 14. Soliq qonunchiligi va shartnoma shartlariga ta'siri.
 15. Barqarorlik tamoyillari va ularning shartnoma shartlariga qo'shilishi.
 16. Yengib bo'lmaydigan kuchlar va ularning huquqiy oqibatlari.
 17. Elektron savdo shartnomalarining xususiyatlari va qonunchilik talablariga mosligi.
 18. Anglo-Sakson va Roman-German huquq tizimlari o'rtasidagi farqlar.
 19. Mediatsiya jarayonlari va ularning xalqaro shartnomalarga ta'siri.
 20. Etika qoidalari va ularning shartnoma tuzish jarayonidagi o'rni.
- Talaba mustaqil ishini tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanishi mumkin:
- darsliklar va o'quv qo'llanmalarining mavzularini o'rganib chiqish;
 - tarqatma material asosida alohida ma'ruza mavzularini o'zlashtirish;
 - maxsus ilmiy adabiyot asosida mavzular ustida ishlash;
 - o'quv-ilmiy-tadqiqot faoliyat bilan bog'liq mavzularni chuqur o'rganish;
 - turli mavzularga doir adabiyotni o'qish (uy o'qishi /domashneye chteniye);
 - ta'lim olishning faol va muammoli usullari qo'llangan o'quv mashqlarini bajarish;
 - taqdim etilayotgan mavzu bo'yicha referat, esse, maqola va testlar tayyorlash;

	<ul style="list-style-type: none"> • mavzu bo'yicha slayd-prezentatsiyani tayyorlash; • ilmiy ma'ruza tayyorlash va taqdimot qilish. <p>* Izoh: Mustaqil ta'lim va kurs ishi mavzulari fan doirasida o'zgarishi mumkin.</p>
	<p style="text-align: center;">V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) <i>“Tashqi savdo shartnomalari va ularning boshqaruv mexanizmlari” fanini o'zlashtirish natijasida talaba:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • Xalqaro savdo shartnomalarining turli turlari va ularning amaliy qo'llanilishi haqida <i>bilishi kerak</i>; • Xalqaro shartnomalarning asosiy elementlarini aniqlash va ularni to'g'ri rasmiylashtirish; • Fors-major holatlari va boshqa kutilmagan vaziyatlarni shartnomaga kiritish va ularga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i>; • Xalqaro shartnoma loyihalarini tayyorlash, huquqiy jihatlarini tahlil qilish va xatolarni tuzatish <i>malakalariga ega bo'lishi kerak</i>.
4.	<p style="text-align: center;">VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol key s-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p style="text-align: center;">VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish. mustaqil ta'lim bo'yicha hamda joriy. oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ish va/yoki og'zaki imtihonni topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;">VIII. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Основы внешнеэкономической деятельности : учеб. пособие /Е. М. Ксенофонтова. – СПб. : ИЦ «Интермедия», 2017. – 196 с. 2. Организация и техника внешнеэкономической деятельности : учеб.-метод. пособие : в 2 ч. / Д. Г. Маслов ; отв. ред. С. Г. Михнева, Д. Г. Маслов. – Пенза : Изд-во ПГУ, 2017. – Ч. 2. 242 с. 4. M. Voxidova. Xalqaro logistika. Toshkent-2025. <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 5. Sh.M. Mirziyoyev. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. - Toshkent: O'zbekiston, 2024.

	<p>6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2023</p> <p>7. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild.- Toshkent: O'zbekiston, 2023.</p> <p>8. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun. - Toshkent: O'zbekiston, 2022.</p> <p>9. J.Kontolla, F.Barath. Advances in human factors, business management, training and education. Switrsland,2017.-115p.</p> <p>10.P.Subba Rao. International business environment.India.2008.- 259p.</p> <p>11.Christian Bjornskov. Basics of international economics.2005.P.94.</p> <p style="text-align: center;">Scopusdan maqolalar</p> <p>12.Rojas, J. and Olarte. S. (2020). From preferential trade arrangements to free trade agreements: one of the downturns of cooperation in international relations?. Social Sciences, 9(8), 139. https://doi.org/10.3390/socsci9080139</p> <p>13.Lilly, M. (2019). Advancing labour mobility in trade agreements. Journal of international trade Law and Policy, 18(2), 58-73. https://doi.org/10.1108/jitlp-06-2018-0025</p> <p style="text-align: center;">Axborot manhalari</p> <p>14. www.zivonet.uz</p> <p>15. www.edu.uz</p> <p>16. www.economicus.ru</p> <p>17. www.canvanazer.com</p>
7.	<p>O'quv dasturi "Tashqi iqtisodiy faoliyat" kafedrasida ishlab chiqilgan va 2025 - yil "12" 06 dagi "20" – sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p> <p>O'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025 - yil "28" 06 dagi "11" -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.</p>
8.	<p>Fan/modul uchun mas'ul: Voxidova M.X. -Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti "Tashqi iqtisodiy faoliyat" kafedrasida mudiri, PhD</p>
9.	<p>Taqrizchilar: Kadirova Z.A. - Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti "Iqtisodiyot va biznes" kafedrasida mudiri, PhD. Tashpulatova L.M.-Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti "Xalqaro iqtisodiyot" kafedrasida mudiri, i.f.n.</p>

10/18